

IJTIMOIY KASALLIKLAR TARQALISHI VA ULARNING PROFILAKTIKASIDA TIBBIY SUG'URTANING O'RNI VA TIBBIY SUG'URTANI AHOLIGA TADBIQ QILISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Raxmonberdiyeva Odina

*FJSTI FJSTI Jamoat salomatligini saqlash va
sog'liqni saqlashni boshqarish yo'nalishi 2-kurs magistri*

Nabijonova Gulzora

*FJSTI Jamoat salomatligini saqlash va
sog'liqni saqlashni boshqarish yo'nalishi 2-kurs magistri*

Annontatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy kasalliklar tarqalishi va ularning profilaktikasida tibbiy sug'urtaning o'ri va tibbiy sug'urtani aholiga tadbiq qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Annotation: The article provides information about the spread of social diseases and the role of medical insurance in their prevention, as well as the importance of modern information technologies in applying medical insurance to the population.

Аннотация: В данной статье представлении сведения о распространении социальных заболеваний и роли медицинского страхования в их профилактике а также о значимости современных информационных технологий при внедрении медицинского страхования для населения.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy kasalliklar, tibbiy sug'urta, moliyaviy xavfsizlik, sog'lom turmush tarzi, profilaktik chora-tadbirlar, telemeditsina, tezkor xizmatlar.

Key words: Social diseases, medical insurance, financial security, healthy lifestyle, preventive measures, telemedicine, rapid services.

Ключевые слова: Социальные болезни, медицинское страхование, финансовая безопасность, здоровый образ жизни, профилактические меры, телемедицина, оперативные услуги.

Ijtimoiy kasalliklar –bu jamoatchilik salomatligiga ta'sir qiluvchi va ko'pincha ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan bog'liq bo'lgan kasalliklar. Ular orasida quyidagilar mavjud: qandli diabet, yurak-qon tomir kasalliklari, ruhiy kasalliklar, oshqazon-ichak kasalliklari, inson immuniteti bilan bog'liq kasalliklar. Hozirgi kunda bu kasalliklar hammasi ham bugungi jamiyatda ko'p uchraydigan kasalliklar hisoblanadi. Har bir kasallikning rivojlanishida yashash turmush tarzining ahamiyati judayam katta bo'ladi shu bilan birga sog'lom turmush tarzi va to'g'ri ovqatlanishning ham. Yuqoridagi aytib o'tilgan ijtimoiy kasalliklar aholiga nafaqat ruhiy balki moddiy tomondan ham birmuncha zarar yetkazadi. Bu kabi muammolarni yengillashtirishda

tibbiy sug'urta yordam beradi.

Tibbiy sug'urta-- bu o'zi nima? Tibbiy sug'urta sog'liqni saqlash xarajatlarini qoplash uchun mo'ljallangan moliyaviy himoya vositasidir. U sug'urta kompaniyasi tomonidan taqdim etiladi va uning shartlariga muvofiq, sug'urtalangan shaxsning tibbiy xizmatlar, dorilar va boshqa sog'liq bilan bog'liq xarajatlarini qoplaydi. Tibbiy sug'urta, umuman olganda ijtimoiy salomatlikni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan bugungi kunda ijtimoiy kasalliklar profilaktikasida tibbiy sug'urtaning o'rni muhimdir.

Ijtimoiy kasalliklar masalan, yurak-qon tomir kasalliklari, diabet, sil kasalligi va boshqa infeksiyon kasalliklar jahon bo'ylab keng tarqalgan muammolardan hisoblanadi. Ushbu kasalliklar nafaqat jismoniy salomatlikka, balki iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularni profilaktika qilish va sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish uchun tibbiy sug'urtaning o'rni juda muhimdir. Shuningdek, ijtimoiy kasalliklar tarqalishi va profilaktikasida tibbiy sug'urtani joriy qilish, bugungi kunda bizning yurtimizda aholiga orasiga kirib borishi qiyin bo'lmoqda.

Xalqimizga tibbiy sug'urtaning afzalliklarini yoritib berish uchun bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni beqiyos deb bilaman. Jumladan tibbiy sug'urta, aholi salomatligini yaxshilash va kasalliklarning oldini olishda quyidagi foydali jihatlari bor:

Moliyaviy xavfsizlik.: Tibbiy sug'urtalar odamlarning tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda moliyaviy xavfini kamaytiradi. Bu ayniqsa, ijtimoiy kasalliklar bilan bog'liq holatlar uchun muhimdir, chunki ular davolanish xarajatlarini sezilarni darajada orttirishi mumkin. Bu esa albatta kutilmaganda moddiy ehtiyojni yuzaga keltiradi. Bunday muammolarni yengillashtirishda tibbiy sug'urtalar moliyaviy tomondan yordam beradi. Jumladan, sug'urta dasturlari tibbiy xizmatlar, dorilar va operatsiyalar uchun xarajatlarni qoplashda yordam beradi, bu esa shaxsiy byujetni muvoztatlashda yordam beradi. Sug'urtalangan shaxslar ko'proq tibbiy xizmatlarga, masalan, mutaxassislar maslahatlariga va yuqori sifatli muolajalarga ega bo'lishadi.

Tibbiy sug'urta orqali yillik xarajatlarni rejalashtirish osonlashadi, chunki ko'p xollarda doimiy to'lovlar mavjud. Bundan tashqari ba'zi sug'urta kompaniyalari sog'lom turmush tarzini qo'llab quvvatlash uchun imtiyozlar va mukofotlar taqdim etadi, bu esa o'z navbatida xarajatlarni kamaytiradi. Moliyaviy xavfsizlik xissi sog'liq uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki tibbiy xarajatlar haqida o'ylash stressni kamaytiradi. Bu afzalliklar, umuman olganda, tibbiy sug'urtaning ahamiyatini va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini ko'rsatadi.

Profilaktik chora-tadbirlar : Tibbiy sug'urta odatda profilaktik xizmatlarga, masalan, sog'liqni tekshirish, vaksinatsiya va boshqa tibbiy ko'riklarga imkoniyat beradi, bu esa kasalliklarni oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Profilaktik ko'riklar

orqali kasalliklarning erta bosqichlarida aniqlanishi, davolash jarayonini osonlashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Profilaktik tadbirlar ko'pincha shaxsiy xarajatlarni talab qilishi mumkin, lekin sug'urta orqali bunday xarajatlar qoplanishi sog'liqni saqlashni qulaylashtiradi. Ba'zi sug'urta kompaniyalari sog'lom turmush tarzini rag'batlantiruvchi dasturlarni taqdim etadi, bu esa aholi o'rtasida sog'liqni saqlashga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Tibbiy sug'urta orqali jamiyatda sog'liqni saqlashga qaratilgan yondashuvlar amalga oshiriladi, bu esa umummilliy sog'liqni yaxshilashga yordam beradi. Umuman olganda, tibbiy sug'urta praofilaktik chora-tadbirlar uchun muhim moliyaviy va ijtimoiy asosdir, bu esa aholi salomatligini oshirishga xizmat qiladi.

Sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish: Sog'lom turmush tarzini rag'batlantirishda tibbiy sug'urtaning roli muhimdir. Sug'urta kompaniyalari sog'lom turmush tarzini qo'llab quvvatlaydigan dasturlar va mukofotlar taqdim etadi, masalan, jismoniy faoliyatlar va sog'lom ovqatlanishni rag'batlantiruvchi tadbirlar yo'lga qo'yiladi. Bu esa o'z navbatida aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi va sug'urtaga bo'lgan qiziqishni orttiradi.

Bundan tashqari sog'lom turmush tarziga oid xarajatlarni (masalan, fitnes markazlariga a'zo bo'lish yoki sog'lom ovqatlar xarid qilish) sug'urta orqali qoplash, bu faoliyatlarni ko'proq amalga oshirishga yordam beradi. Tibbiy sug'urta sog'lom turmush tarzini rag'batlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Yuqorida berilgan ma'lumotlarda ijtimoiy kasalliklar tarqalishi va profilaktikasida tibbiy sug'urtaning ahamiyati juda katta ekanligi va birqancha foydalari ko'rsatib o'tildi. Endi ijtimoiy kasalliklari bor bemorlarni va birmuncha kasalliklarni oldini olishda tibbiy sug'urtaning aholi orasiga kirib borishi va kengroq tadbir qilish va tibbiy sug'urtaning foydalarini aniqroq yetkazib berishda zamonaviy axborot texnologiyalari judayam katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari bugungi xar qanday sohaning ishini yengillashtirishga yordam beryapti. Bugungi kunda har bir inson axborot texnologiyalari bilan bog'liq hisoblanadi. Shu bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari tibbiyotga juda katta yordam bermoqda va ushbu sohada ko'plab inqilobiy o'zgarishlar kiritmoqda.

Shuningdek ko'pgina kasalliklarni erta aniqlash va oson tashxis qo'yishda ham axborot texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Tibbiyotda tezkor va aniq tashxis qo'yish judayam muhim hisoblanadi. Sun'iy intellekt va mashinani o'rganish texnologiyalari yordamida kasalliklarni dastlabki bosqichida aniqlash imkoniyati oshmoqda. Radiologiya va patalogiya sohasida, masalan, tasvirlarni tahlil qiluvchi algoritmlar orqali o'simta va boshqa kasalliklar tezda aniqlanmoqda.

Internet va yuqori tezlikdagi aloqalar orqali bemorlar masofadan turib shifokorlar bilan bog'lanishni va maslahat olish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi yoki shifokorga yetib borish qiyin bo'lgan bemorlar

uchun juda foydali. Bundan tashqari elektron sog'liqni saqlash kartalari orqali bemorlarning tibbiy tarixini raqamli shaklda saqlanib, ularni tahlil qilish osonlashmoqda. Bu nafaqat bemorlar uchun qulaylik, balki shifokorlarga ham davolashni to'g'ri rejalashtirishda yordam beradi.

Robotik texnologiyalar yordami bilan nozik jarrohlik amaliyotlari yanada aniqroq va xavfsizroq amalga oshirilmoqda. Masalan , robotik jarrohlik texnologiyalari yordamida minimal invaziv operatsiyalar (kichik kesishlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar) ortmoqda.

Genomik tahlil va kasalliklarni prognoz qilish. Genomi o'rganish va tahlil qilishda sun'iy intellekt yordamida irsiy kasalliklarni aniqlash va ularni oldindan prognoz qilish imkoniyati oshmoqda. Bu bemorlarning kasalliklarga moyilligini aniqlash va oldini olishda katta yordam beradi.

Dori –darmonlar ishlab chiqishda texnologiyalar. Superkompyuterlar va simulyatsiyalar orqali dori-darmonlar, vaksinalar va muqobil davolash usullari tezroq sinovdan o'tkazilib, bozorga chiqarilmoqda. Axborot texnologiyalari bulardan tashqari yanada ko'plab imkoniyatlarni ochmoqda va sog'liqni saqlash tizimini samaraliroq qilishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu kelajakda yana ko'plab yangilik va imkoniyatlarga yo'l ochadi.

Shunday ekan axborot texnologiyalari tibbiy sug'urtani aholi orasiga tadbiq qilishda ham birqancha foydalari bo'ladi. Masalan, axborot texnologiyalari orqali tibbiy sug'urtaning afzalliklari , shartlari va xizmatlari haqida keng jamoatchilikka ma'lumot yetkazish mumkin. Veb-saytlar, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'lumotlar tarqatiladi. Aholi onlayn platformalar orqali tibbiy sug'urtaga ro'yhatdan o'tish va sug'urta polisi sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayonni osonlashtiradi va vaqtini tejaydi. Sug'urta kompaniyalari mijozlarga profilaktik ko'riklar, dorilar yoki boshqa muhim tadbirlar haqida eslatmalar yuborishi mumkin. Onlayn chat va yordam markazlari orqali mijozlar sug'urta bo'yicha savollarga tezkor javob olishlari mumkin bo'ladi.

Axborot texnologiyalari yordamida aholi salomatligi va sug'urta ishlatish statistikasi tahlil qilinadi, bu esa sug'urta dasturlarini yaxshilashga yordam beradi.

Tibbiy xizmatlarni qidirish, tayinlash va ularni kuzatish uchun mobil ilovalarva onlayn platformalar orqali qulayliklar yaratiladi. Bu yondashuvlar tibbiy sug'urtani aholi orasida samarali va keng tarqatishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pahlavon Q. TIBBBIYOTDA MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI //GERMANY SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 24-28.

2. Qurbonov P., Xoldarova G., Rasulova F. TIBBIYOTDA KOMPYUTER TOMOGRAFIYASI VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH //Наука и инновация. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 35-39
3. Qurbonov P., Xoldarova G., Rasulova F. TIBBIYOTDA KOMPYUTER TOMOGRAFIYASI VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH //Наука и инновация. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 35-39.

Internet saytlari:

1. <https://clinics.uz>
2. <https://uz.m.wikipedia.org>
3. <https://m.facebook.com>